

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief:

Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries:

Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirbayev, Janat Aymuhambet

Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....6

Munavvara Qurbonova

Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....18

Gulnoraxon Niyazova

Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....32

Afag Gemberova, Gulgun Huseynli

Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha:

“Dunyoning til manzarasi.....56

Jumanazar O‘rozov

Sud-tergov jarayoni bilan bog‘liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida.....68

Sanjar Islomov

Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....83

Kamaraddin Davletov

Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo‘rquv konsepti.....106

Adabiyotshunoslik

Shahlo Hojiyeva

Sharqu g‘arb ma‘rifatchilik adabiyotining uyg‘unligi va o‘ziga xosligi.....120

Oynisa Hojiyeva

Özbek – Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....138

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirbaev, Janat Aymuhambet

Turkish language structure in the interpretation of local intellectuals...6

Munavvara Kurbonova

Semantic classification of illocutionary acts characteristic of children's.....18

Gulnorakhon Niyazova

Pragmatic adaptation in detective fiction.....32

Afag Gemberova, Gulgun Huseynli

A new fundamental concept in linguistics: "Language landscape of the world"56

Jumanazar Urozov

On the identification marks of manuscript texts relating to the judicial process.....68

Sanjar Islomov

Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts. Comparative analysis.....83

Kamaraddin Davletov

Emotional-conceptual picture of the world, emotions and the concept of fear.....106

Literature

Shahlo Hojiyeva

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment.....120

Oynisa Hojiev

Comparative Analysis of Uzbek – Turkish Proverbs.....138

LINGVISTIKA
LINGUISTICS**Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar
talqinida**Samixon Ashirbayev¹Janat Aymuhambet²**Abstrakt**

Turkiy tilshunoslik tarixi bo'yicha boy material to'plangan bo'lsa-da, XX asr boshlaridagi mahalliy mualliflarning turkiy (o'zbek) tili bo'yicha amalga oshirgan ishlari hali o'rganilishi lozim. To'g'ri, ushbu ishda tadqiq obyektimiz bo'lgan asarni to'laqonli ilmiy asar deb baholamasak-da, til ilmida shu davrdagi o'zbek tilida yaratilgan dastlabki asar sifatida hamda uning ilm uchun va unga tanqidiy baho berish uchun ahamiyatli ekanligini ta'kidlagan bo'lar edik. Asar "Turkcha qoida" deb nomlangan, lekin unda o'zbek tili faktlariga asoslanilgan. Shunisi ma'lum ediki, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida O'rta osiyo tillari tushunchasi ustun bo'lib, aniq tillar nomi emas, balki "turkiy til" tushunchasidan foydalanish keng tarqalgan edi. Shu tufayli ham Muhammad Karimxoja bu asarni yuqoridagidek nomlashga majbur bo'lgan va unda o'zbek tili, qisman, Toshkent shevasi materiallaridan foydalangan, lekin asarning biron o'rnida ham o'zbek terminini ishlatmagan. Asarda, asosan, o'zbek tilining grammatik qurilishi aks etgan bo'lsa-da, nazariy jihatdan bo'sh asarlar turkumiga kiradi. Uni faqat shu davrda turkiy tillardan birida yaratilgan grammatik asar sifatida o'rganish mumkin edi.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik tarixi, turkiy til, kalima,, ism, sifat, zamir, odot, mutakallim, muxotab, g'oyib, mufrad, jam.*

Kirish

XIX asrning 2-yarmida rus turkologlari o'zbek tilshunosligi

¹ *Ashirboyev Samixon* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

² *Aymuhambet Janat* – filologiya fanlari doktori, professor, A.N.Gumilov nomidagi Yevroosiyo Milliy universiteti.

E-mail: a_zhanat@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7061-3000

Iqtibos uchun: Ashirboyev, S., Aymuhambet, J. 2024. "Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6-17.

sohasida ham samarali ijod qilgan bo'lsalar-da, Turkistonning mahalliy ziyolilari bu sohada ancha sust edilar. To'g'ri, rus tilida bilim olgan mahalliy ziyolilardan tarjimon Toyirbek Qiyosbekov, qozoq siyosat va jamoat arbobi Serali Munaytbasovich Lapinning o'zbek tiliga oid asarlari bo'lgan. Ularning asarlari rus tilida va rus tishunosligi an'anasida yaratilgan hamda amaliy maqsadlarnigina ko'zlagan, boshqacha aytganda, o'zbek tilini rus kishisiga o'rgatishga bag'ishlangan. Shuni aytish lozimki, bu davrda mahalliy olimlarning tilni ilmiy o'rganishga bag'ishlagan maxsus asarlari bo'lmagan, balki til ilmi to'g'risida shu davrdagi ta'lim tizimi uchun yozgan asarlarda til nazariyasi va amaliyotiga oid ma'lumotlarnigina uchratish mumkin, xolos. Shu ma'noda, Muhammad Karimxojaning قاعدہ ترکیچہ ("Turkcha qoida") asari muhim rol o'ynagan [Turkcha qoida 1913].

Asarning maktablar uchun mo'ljallangani to'g'risida kirish qismida ma'lumot beriladi. To'g'ri, bu davrda o'zbek tilida boshlang'ich maktablarning birinchi sinflari (jamoalari) uchun yaratilgan Saidrasul Xojasaidning "Ustodi avval" (1903), Munavvar Qori Abrurashidxonning "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1917) va shu kabi boshqa risolalari mavjud edi. Bu asarlar savod o'rgatishga qaratilgan bo'lib, uning o'qituvchilar, maktabdorlar uchun mo'ljallangan o'rinlarida ba'zi tovushlarning fiziologik xususiyatlari haqida qisman ma'lumot berishga harakat qilingan va o'zbek tilida qo'llanayotgan ayrim arabcha so'zlarning imlosi ustida fikr yuritilgan, lekin o'zbek tili grammatik qurilishi tilga olinmagan. Ko'rinadiki, bu asarlar lingvistik maqsadda yaratilmagfni uchun ularda tilning qonun-qoidalari haqida ma'lumot berilmaydi. Shu davrdagi o'zbek tilining grammatik xususiyatlarini aks ettirgan birdan-bir asar Muhammad Karimxojaning mazkur kitobidir. Bu asar ancha murakkab bir davrda yaratildi. Ma'lumki, XX asrning boshlarida milliy o'zlikni anglash kuchaygan [Хораматов 2022, 9] va o'z ona tilida o'quv adabiyotini yaratishga ham o'tilayotgan davr edi. Shunday davrda o'z ona tilida Muhammad Karimxojaning "Turkcha qoida" asari yuzaga keldi.

Shuni aytib o'tish lozimki, Muhammad Karimxojaning mazkur asari o'sha davr uchun o'zbek tiliga oid yagona asar bo'lsa-da, uni to'la mustaqil yozilgan deb bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ya'ni asarning asosiy strukturasi va terminologiyasi Muhammadrasul Rasuliyning "Rohbari forsi" [Расулий 1911, 1914, 1917] asaridan olingan, lekin ko'p o'rinlari qayta ishlangan va o'zbek tiliga tatbiq etilgan. Muhammad Karimxoja bu asarda savod

o'rgatishni maqsad qilib qo'ymagan, chunki bu jarayon boshlang'ich maktablarning birinchi jamoalarida amalga oshirilardi.

Mazkur asar tilshunoslar va til metodikasi mutaxassislari tomonidan tadqiqot obyekti bo'lgan emas, lekin ishni tahlil qilish jarayonida "Attuhfatuz zakiyatu fil lug'atit turk", Mirzo Mahdiyxonning "Maboni ul-lug'at" asarlaridagi tushunchalar bilan qiyoslashga to'g'ri keldi.

Asosiy qism

Asarni sinchiklab tekshirganimizda, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya va orfografiya masalalari boshlang'ich tarzda yoritilganligini ko'ramiz. Ularni shu asar mundariyasi asosida ilmiy tahlil qilishga kirishamiz.

Asar so'z turkumlarini bayon qilish bilan boshlanadi. Muhammad Karimxoja "so'z turkumi" degan terminni qo'llagan emas, balki shu termin o'rnida *kalima* (so'z) terminidan foydalanган. U "*kalima*"larni besh turga ajratadi: *ism*, *sifat*, *zamid*, *odot*, *fe'l*. Bu turkumlarga ta'rif ham beradi. Ta'riflarni kuzatganimizda, ular so'zning o'z ma'nosini e'tiborga olmaydi, balki *mavjud bo'lmagan belgini inkor qilish* usulidan foydalanadi. Masalan: "*Ism deb, ma'nilik ichida zamon bo'lmagan kalimani aytilur* (4-b). Bu ta'rifga binoan zamon ma'nosi bo'lmagan barcha so'zlar otga (ismga) kiritilishi lozim bo'ladi. Ammo olmoshga (zamidga) berilgan ta'rif nihoyatda tor bo'lsa-da, hozirgi ta'rifga ancha yaqin: "*Zamid deb, ismning o'rniga qo'yilg'uchi kalimani aytilur*" (6-b). U zamid deganda faqat kishilik olmoshinigina tushungan, lekin muallif olmoshlarni tasnif qilganida (uni uch guruhga bo'lganida), kishilik olmoshlari bilan birga fe'llardagi shaxs-son affikslari va egalik affikslarini ham olmoshga kiritib, so'z ("kalima") doirasidan chiqib ketadi, sababi u olmoshlarning *zamidi shaxsi*, *zamidi izofiya* va *zamidi fe'li* tarzida uch turini ko'rsatgan edi. *Zamidi shaxsining* o'z navbatida *mutakallim* (so'zlovchi) *muxotab* (tinglovchi), *g'oyib* (so'zlangan odam, ya'ni o'zga); ularning *mufrad* (birlik) va *jam* (ko'plik) turlariga ajralishini ko'rsatadi. Bu esa hozirgi tilshunoslikdagi kishilik olmoshlarining uch shaxs va ularning grammatik son turlariga mos keladi. Bulardan zamidi izofiya va zamidi fe'li turlari odot turkumida izohlanadi. Undan tashqari, olmoshlarni faqat otning mavjudligini ko'rsatish uchun qo'llanadi, deyishidan ko'rinadiki, olmoshning sifat, son bildiruvchi so'zlarning mavjudligini ko'rsata olishi e'tirof qilinmaydi [Суратов 1965, 4].

Ta'kidlash joizki, egalik va shaxs-son affikslarini olmosh

deb hisoblashi uning xatosi ham emas, chunki to yangi asrlargacha bunday affikslarga olmosh deb qarash an'anasi bo'lgan, ya'ni XIII – XIV asrlarda yopishiq olmoshlar [Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия 1968, 107], o'tgan asrning 20, 30-yillarida ham olmosh izlari, yopishiq olmoshlar, olmosh belgilari deb yuritishi tilshunoslikda bo'lgan [Қодиров 2006, 96].

Sifatga juda kam o'rin berilgan: unga *“odamning yoki narsaning hol va ahvoli”*ni (5-b) bildirishi e'tiborga olingan, har holda belgi tushunchasi to'g'risida gap borayotganligini anglash mumkin. Demak, sifat semantik planda ta'riflangan.

Muallif har qanday affiksni alohida *“so'z turkumlari”*ga - اادات (odot)ga kiritgan va uni *“yolg'iz o'zidan bir ma'ni chiqmaydurg'on kalima”* (7-b.) deb yuritgan. Bu fikr uning affiks ekanligiga monelik qilmaydi va tarixiy an'anaga ko'ra uni so'z (kalima) qatoriga kiritadi. Affikslarni (uning qanday affiks ekanligidan qat'i nazar) alohida *“so'z turkumi”* hisoblashi keyinchalik yaratilgan ayrim asarlarda davom etgan [Фитрат 1925, 25].

Asarda oxirgi so'z turkumi fe'ldir. Muhammad Karimxoja fe'lni *“uch zamondan biriga dalolat qilgan”* kalima sifatida ta'riflaydi. Bundan ko'rinadiki, fe'lning bir morfologik belgisi ta'rif uchun asos qilib olingan. Vaholangki, aksariyat so'z turkumlari semantik tamoyil asosida ta'riflangan edi.

Endi yuqorida bayon qilingan har bir turkum ichidagi kategoriyalarga to'xtalamiz. Otning ikki ma'no turini ko'rsatadi: 1. *Ismi om*, 2. *Ismi xos*. Bunday turlarga ajratish otlarning semantik gruppalanishiga, ya'ni turdosh va atoqli otlarga ajralishiga yaqin keladi.

Ismi om turdosh otlarga mos keladi. Ismi xos aslida predmetlarga atalib qo'yilgan atoqli ot ma'nosiga birmuncha to'g'ri kelsa ham, keltirilgan misollarida Ähmäd, Mäkkä, Mädinä, Nil kabi atoqli otlar bilan bir qatorda *šer, böri, lāč'in, qarč'iyaj* kabi turdosh otlar ham bor. Ko'rinadiki, ismi xos termini hozirgi ma'nodagi *“atoqli ot”* terminiga to'la muvofiq kelmaydi. Biroq shuni aytish kerakki, ismi xosga keltirilgan misollar *“Ismi xos deb shundog' ismni aytilurki, bir ism ko'p narsaning bir qismiga dalolat qilsa”* (4-b) – degan ta'rifiga binoan birmuncha to'g'riga o'xshaydi, chunki *qarč'iyaj* qushlar sinfiga kiradi, demak, *qarč'iyaj* qushlarning bir turidir. Uni Muhammad Karimxoja ta'rifiga ko'ra *“ko'p narsaning bir qismi”* deb ayta olamiz. *Böri* so'zini ham shunday asoslash mumkin, ammo bu ta'rif Ähmäd, Mäkkä, Mädinä, Nil kabi so'zlarga muvofiq kelmaydi, chunki ular narsaning bir qismi bo'lmay, balki

kishi, shahar va daryoga atab qo'yilgan ismlardir. Ko'rinadiki, bu ta'rifda mantiqiy izchillik yo'q.

Kelishiklar

Muhammad Karimxoja kelishik affikslarini (to'g'rirog'i, kelishik kategoriyasini) nisbatan kengroq yoritishga harakat qilgan. U kelishik affikslarini *odoti mafoili* deb ataydi va uni ot (ism) turkumi ichida emas, balki odot deb ajratilgan turkum ichida izohlaydi. U tubandagi kelishiklarni ajratadi, uni Muhammad Karimxoja jadvalidan foydalanish asosida ko'rsatamiz:

№	Kelishikning arabcha-forscha nomlanishi	Beriladigan savoli	Misollari	Bizning izohimiz
1.	maf'uli mutlaq	kim, nima	kitob, odam	bosh kelishik
2.	maf'uli bihi	kimga, nimaga	kitobga, odamga	jo'nalish kelishigi
3.	maf'uli fihi	kimda, nimada	kitobda, odamda	o'rin-payt kelishigi
4.	maf'uli ma'hu	kim ila, nima ila	kitob ila, odam ila	(vosita kelishigi*)
5.	maf'uli minhi	kimdan, nimadan	kitobdan, odamdan	chiqish kelishigi
6.	maf'uli a'layhi	kim uzra, nima uzra	kitob uzra, odam uzra	(yo'nalma kelishigi*)
7.	maf'uli na'hu	kim uchun, nima uchun	kitob uchun, odam uchun	(atalganlik kelishigi*)
8.	maf'uli ilayhi	kimni, nimani	kitobni, odamni	tushum kelishigi

Bu jadvaldagi Muhammad Karimxojaga xos xususiyat "maf'uli mutlaq" (bosh kelishik) terminidan foydalanishidir, aslida mahalliy tilshunoslik an'nasida bu kelishik tilga olinmas edi.

Ilä, üzrä, üčün ko'makchilari bilan hosil qilingan analitik shakldagi so'zlarning funksiyasi kelishik shakllarining funksiyasiga yaqin bo'lganligi uchun ham Muhammad Karimxoja ularni kelishik deb ataganligi bizga ma'lum. Shuningdek mazkur ko'makchilar bilan hosil qilingan shakllarni kelishik deb hisoblashi Muhammadrasul Rasuliya ergashish tufayli yuzaga kelgan bo'lishi ham mumkin [Расулий 1911, 11].

Ma'lumki, yuqorida ko'rsatilgan ko'makchili so'z shakllarning kelishik deb hisoblanishi o'zining uzoq tarixiga ega. Bu davrdagi rus tilida yaratilgan o'zbek tili asarlarida *bilän* (uning variantlari bilan birga) ko'makchisi orqali hosil qilingan shakl qurol kelishigi deb atalgan. Shuningdek, "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya"da ham üst, bilä ko'makchisi kelishik ko'rsatkichi sifatida

keltiriladi [Аттухфатуз закиятү ... 1968, 168]. Mirzo Mahdiyxon üçün ko'makchisini kelishik shaklida qatnashishini ko'rsatadi [Умаров 1967, 6]. Ko'rinadiki, Muhammad Karimxojaning üzrā, üçün, ilā ko'makchilarini kelishik shakllari sifatida ko'rsatishi tasodifiy emas.

Muhammad Karimxoja affikslarining turkiy tillarda hamma vaqt so'z oxiriga kelishi va ko'makchilarning mustaqil so'zdan keyin kelishi to'g'risida fikr yuritadi. U ko'makchilarni ham affiks deb tushunganligi tufayli uning mustaqil so'zlar bilan birga kelishi haqida emas, balki ko'makchilarning so'zga qo'shilishi haqida fikr yuritadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Muhammad Karimxoja kelishik tizimining hozirgi ilmiy tamoyillarimizga mos keladigan ixcham jadvalini ham beradi [Абдуллаев 1966, 143]. Biroq bu jadvalda qaratqich kelishigi affiksi ko'rinmaydi. Bu affiks sintaktik tushunchalar ichida uchraydi, ya'ni *jumlai izofiyani* (bizning tushunchamizda *qaratqichli birikma*) izohlashda *-niq kalimasi* (*meniq kitābim, saniq kitābiq, uniq kitābi, bizniq kitābimiz, sizniā kitābiqiz, ularniq kitāblari*) degan terminni ishlatadi, lekin, ta'kidlaganimizdek, uni kelishik deb yuritmaydi.

Yuqoridagi izohimizdan ko'rinib turibdiki, qaratqich kelishigi Muhammad Karimxojaning turlanish tizimida yo'q, uni kelishik sifatida ajratmaydi. Bu bilan uni ayblab ham bo'lmaydi, chunki keltirgan *mafoil* (kelishik) ko'rsatkichlari shu so'zning fe'l bilan grammatik (relyativ) munosabatini ko'rsatadi, *-niq* affiksidan esa bunday holni kuzatib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Muhammad Karimxoja *-niq* affiksini olgan so'zni kelishik deb hisoblamagan bo'lishi mumkin. Bu holat "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya"da ham mavjud edi. Muhammad Karimxojaning bunday xulosaga kelishi qaratqichli birikmalarning fors tiliga izofali birikmalar bilan tarjima qilinishi tufayli yuzaga kelgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bu affiksni *kalima* (so'z) deb yuritishi esa an'anaga ko'radir, ya'ni to o'tgan asrning 20-yillariga qadar affikslar so'z sifatida qaralganligi bilan bog'liq. Qaratqich kelishigining Muhammad Karimxojaning tizimida yo'qligi tasodif ham emas. Ma'lumki, kelishik shakllarining asosiy vazifasi ot yoki otlashgan so'zning fe'lga munosabatini ko'rsatishdan iborat, qaratqich kelishigi esa bu tizimda qatnasha olmaydi. Shuning uchun o'z davrida Fitrat kelishiklarni morfologik hodisa deb qaramagan va sintaksisda gap bo'laklarining ifodalanishi jarayonida izohlagan [Фитрат 2006, 181]. Ma'lumki, hozir ham turkologiyada bu shakl izofaning 3-shakli sifatida qaraladi [Аттухфатуз зиятү ... 1968, 107].

Egalik shakllari

Muhammad Karimxoja egalik affikslarini ham *odot* turkumi ichida izohlaydi va uni اضافيه *(zamiri izofiya)* deb yuritadi. Egalik affikslarining birlik, uni مفرد (*mufrad*) va ko'plik (جم *jam*) shakllarini belgilaydi hamda uch shaxsini ko'rsatishini aytadi. Shuningdek, egalik affikslarining unli va undosh tovush bilan tugagan so'z negizlariga qo'shilishi haqida ham fikr yuritadi. Undosh bilan tugagan so'z negiziga qo'shilishi haqida shunday deydi: *"Zamiri izofiyalar ismning oxirida kelib, zamiri izofiya qo'shilgan ismning oxiri sukunlik (aslida yopiq bo'g'in, bu o'rinda undosh – A.C.) bo'lsa, kasra (qisqa i unlisi) o'qilur (9-b.). Unga misol qilib kitābim, kitābī, kitābī; kitābimiz, kitābīniz, kitāblari so'zlarini keltiradi. Unli bilan tugagan so'z negiziga qo'shilishi haqida esa: "Agar ismning oxiri fatxalik bo'lsa, zamiri izofiya kelsa, ham fatxa o'qilur, lekin mufrad sig'asining g'oyibida yoki sing'a i qo'shib, -si o'qilur" (19-b.). Unga misol qilib dālīm, dālīn, dālīsī, dālīmiz, dālīniz, dālīlari so'zlarini keltiradi. Albatta, bu misol muvaffaqiyatli tanlangan emas. Dāl so'zi arab alifbosidagi د (d) harfining nomi bo'lib, u o'rni bilan bukilgan qomat va ayollarning gajagini anglatishda ham qo'llanadi.*

Muhammad Karimxoja egalik affikslarini olmosh deb atagan. Egalik affikslarini olmosh deb yuritish tasodif bo'lmay, balki O'rta Osiyo tilshunoslik an'anasi bilan bog'liqdir. Muallifi noma'lum bo'lgan "Attuhfa"da [Расулий 1911, 11] "yopishiq olmosh" deb nomlangan. Mahdiyxon uni "zamiri muttasila" (yopishiq yoki qo'shiluvchi olmosh) deb yuritgan [Умаров 1967, 7].

Ko'plik shakli

Muhammad Karimxoja bu shakl haqida juda qisqa ma'lumot bergan, ya'ni ko'plikning hosil qilinishigina ko'rsatadi, ya'ni ko'plikning *-lär* (لَر), *-lar* (لَر) affikslari bilan hosil qilinishigina aytadi. Bu affiksning ikki xil yozilishi bekorga emas, balki dastlabki variantni transkripsiyada old qator *-lär (jigitlär)* va orqa qator *-lar (balalar)* deb tushunishga asos bo'ladi. Garchi bundan singarmonizm qonunini anglash mumkin bo'lsa-da, asarda bu qonun haqida fikr bayon qilingmagan.

Ishda sifatning grammatik shakllari to'g'risida ma'lumotlar uchramydi.

Olmoshning uchta turi to'g'risida fikr yuritilgan: *zamiri shaxsi, zamiri izofiya, zamiri fe'li*. Bulardan faqat *zamiri shaxsi* hozirgi tushunchalardagi kishilik olmoshlaridir, lekin *zamiri izofiya*, yuqorida aytilganidek, egalik affikslariga mos keladi, *zamiri fe'li* esa

shaxs-son affikslari bo'lib, u haqda quyiroyqda bahs qilinadi.

Kishilik olmoshlaridagi *mutakallim*, 2-shaxs *muxotab*, 3-shaxs *g'oyib* (o'zga) terminlari o'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan "Til saboqlig'i" asarlarida ham davom etgan [Қори, Рамазон, Зуннун 1926, 61]. Albatta, 1-, 2-shaxs birlikdagi kishilik olmoshlarining *män, sän* fonetik variantlarida yozilishi misollarni Toshkent shevasidan tanlaganinini ham ko'rsatadi.

Odod deb nomlangan turkumni maxsus izohlamaymiz, chunki bu "turkum" aslida so'zlar turkumi emas, balki affiks morfemalar turkumidan iborat, lekin o'zbek tilshunosligi tarixida affikslarni ham so'z deb qarash an'anasi bo'lgan. Bunday qarash o'zbek tilshunosligining XX asr boshlaridagi amaliy grammatikalarda ham davom etgan. Abdurauf Fitratning "Sarfi" asarida ham ular "Belgilar" nomi bilan bir turkum sifatida ajratiladi [Умаров 1967, 6].

Fe'l shakllari

Bu asarda ham fe'lga nisbatan keng o'rin berilgan. Muhammad Karimxoja fe'llarni izohlashda arab terminologiyasi asosida fe'l shakllarining hosil qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi, boshqacha aytganda, biror nazariy fikrni ilgari surmaydi va o'zbek (uningcha, turkiy) tilidagi fe'llarining 23 shaklini keltiradiki, uni biz quyidagicha joylashtirdik:

№	Forscha-arabcha termini	O'zbekcha ekvivalenti	fe'l shakllari
1.	moziyi shuhudi	o'tgan zamon	o'qudi, yozdi
2.	moziyi nag'li	ravishdosh, harakat nomi	o'qush, o'qub, yozish
3.	amri hozir	buyruq shakli, 2-shaxs	o'qu, yoz
4.	amri g'oyib	buyruq shakli, 3-shaxs	o'qusun, yozsun
5.	nahyi hozir	buyruqning bo'lishsizlik shakli, 2-shaxs	o'quma, yozma
6.	nahyi g'oyib	buyruqning bo'lishsizlik shakli, 3-shaxs	o'qumasun, yozmasun
7.	ma'lumi fe'li muzore'	kelasi zamon sifatdoshi	o'qur, yozur
8.	majhuli fe'li muzore'	majhul nisbatdagi sifatdosh	o'qilur, yozilur
9.	hole muzore'	hozirgi zamon	o'quyur, yozyur
10.	istiqbol	kelasi zamon maqsad fe'li	o'qumakchi, yozmakchi

11.	vujubi	kelasi zamon lozimlik fe'li	o'qumagi kerak, yozmagi kerak
12.	ismi foil	kelasi zamon sifatdoshi	o'qug'uchi, yozg'uchi
13.	ismi maf'ul	majhul nisbatdagi kelasi zamon sifatdoshi	o'qulg'uchi, yozilg'uchi
14.	fe'li shart	3-shaxs shart fe'li	o'qusa, yozsa
15.	moziyi be'id	o'tgan zamon hikoya fe'li	o'qub edi, yozub edi
16.	ma'lumi fe'li nafi	hozirgi-kelasi zamon fe'li 3-shaxsi	o'qumiydi, yozmiydi
17.	majhuli fe'li nafi	majhul nisbatdagi hozirgi-kelasi zamon fe'lining 3-shaxsi	o'qulmiydi, yozilmiydi
18.	ma'lumi fe'li jahd	o'tgan zamon bo'lishsiz fe'li	o'qumadi, yozmadi
19.	majhuli fe'li jahd	majhul nisbatdagi o'tgan zamon bo'lishsiz fe'li	o'qulmadi, yozilmadi
20.	ma'lumi moziy	o'tgan zamon sifatdoshining bo'lishli shakli	o'qugan, yozgan
21.	majhuli moziy	o'tgan zamon sifatdoshining majhul nisbatdagi shakli	o'qulgan, yozilgan
22.	holi moziy	sifatdoshli o'tgan zamon	o'qurdi, yozurdi
23.	oli masdar	harakat nomi	o'qush, yozish

Muhammad Karimxojaning fe'l shakllari terminlari va uning ifodalari to'g'risidagi yuqoridagi jadvaldan uning til bilimlari hali to'liq shakllanmagan va u tahrirga muhtojligi sezilib turibdi. Ular quyidagilarda ham ko'rinadi:

1. Ayni bir shakl turlicha nomlangan: *moziyi nag'li* va *holi masdar*.

2. Kelasi zamon sifatdoshi bir necha terminlar ostida o'rganilgan: *ma'lumi fe'li muzore'*, *holi moziy*.

3. Qo'llagan termini fe'lning xususiyatini aks ettirmaydi: *moziyi shuhudi*.

4. Asarda Toshkent shevasi materiallaridan foydalanmoqchi bo'ladi, lekin bu borada u qat'iy emas.

5. To'laligicha arabcha-forscha terminologiyani qo'llaganligiga ham qo'shilib bo'lmaydi.

Xulosa

Bu asarda arab va fors tili terminlarini turkiy til hodisalari uchun qo'llashini turkiy tilshunoslik uchun tatbiq etib bo'lmas edi. Shu bilan birga, bu davrda turkiy til qoidalarining ilk bor turkiy tilda yozilganligini baholash mumkin bo'ladi.

Muhammad Karimxoja bu asarida sintaksis, orfografiya va punktuatsiya masalalariga ham to'xtalgan. Ulardan punktuatsiya o'z davri uchun muhim bo'lgan, chunki barchaga ma'lumki, arab grafikasida tinish belgilari, deyarli, qo'llanmagan, shu tufayli arab yozuvi asosidagi matnlarda tinish belgilarini qo'llashga tashviq qilgan bu asar ahamiyatli bo'lib, uning bu harakatlari keyinchalik 20-yillarda nashr etilgan grammatik asarlarda rivojlantirilgan. Bu to'g'rida boshqa ishda tadqiqi amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ю. 1966. *Очерки по методике обучения грамоте в узбекской школе*. Ташкент: Ўқитувчи.
- Атмуҳфатуз закияту филлуғатит туркия*. 1968. Тошкент: Фан.
- Киясбеков, Т. 1908. *Элементарная грамматика сартовского языка*. М.П.Басалов. Сартовский переводчик. Ташкент.
- Лопин, С.А. 1907, 1914. *Краткая грамматика узбекского языка. Карманный русско-узбекский словарь*. Самарканд.
- Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxoja. 1913. *Turkcha qoida*. Toshkent.
- Муҳаммадрасул Расулий. 1911, 1914, 1917. *Роҳбари форси*. Тошкент.
- Суяров, И. 1965. *Местоимение в современном узбекском литературном языке*: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Самарканд.
- Нормаматов, С. 2022. *Ўзбек тилшунослиги тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари ўзбек тилшунослиги)*. Тошкент: Bookmany Print.
- Расулов, Р. 1955. *Ўзбек тилини ўрганиш тарихидан*. Андижон давлат пединституту илмий асарлари. Андижон.
- Умаров, З. А. 1967. *Грамматика староузбекского языка "Мабони-ул-лугат" Мирзы Мехдихана*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент.
- Фитрат, Абдурауф. 2006. *Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба*. Наҳв. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият.
- Фитрат, Абдурауф. 1925. *Сарф*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Зунун Ш. 1925. *Ўзбекча тил қоидалари*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Қодиров, Қ. 2006. *Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан*: филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Қори, М., Рамазон, Қ, Зуннун, Ш. 1926. *Ўзбекча тил сабоқлиғи*. Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр.

Turkish language structure in the interpretation of local intellectuals

Samikhan Ashirbaev¹

Janat Aymuhambet²

Abstract

Although rich material has been collected on the history of Turkic linguistics, the works of local authors on the Turkic (Uzbek) language at the beginning of the 20th century still need to be studied. True, although we do not consider the work that is the object of our research in this work as a full-fledged scientific work, as the first work created in the Uzbek language of this period in linguistics, it is important for science and for giving a critical assessment to it. We would be kidding. The work is called «Turkish rule», but it is based on the facts of the Uzbek language. It was known that at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the concept of Central Asian languages prevailed, and the use of the concept of «Turkish language» rather than the name of concrete languages was widespread. Because of this, Muhammad Karimkhoja was forced to name this work as above, and he used the Uzbek language in it, including, in part, the materials of the Tashkent dialect, but he did not use the term Uzbek anywhere in the work. The work mainly reflects the grammatical structure of the Uzbek language, but it belongs to the category of theoretically empty works. It could be studied only in this period as a grammatical work created in one of the Turkic languages.

Key words: *history of linguistics, Turkish language, kalima, noun, adjective, pronoun, habit, mutakallim, mukhatab, absent, singular, plural.*

References

- Abdullaev, Y. 1966. *Ocherki po metodike obucheniya gramote v uzbekskoy shkole*. Tashkent: O'qituvchi.
- Attuhfatuz zakiyatı fillug'atı turkiya*. 1968. Toshkent: Fan.

¹ *Ashirboev Samikhan* – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

² *Aymuhambet Janat* – Doctor of Philological Sciences, Professor, Eurasian National University named after A.N. Gumilov.

E-mail: a_zhanat@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7061-3000

For citation: Ashirboev, S., Aymuhambet, J. 2024. "Turkish language structure in the interpretation of local intellectuals". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 6-17.

- Kiyasbekov, T. 1908. *Elementarnaya grammatika sartovskogo yazyka*. M.P.Basalov. Sartovskiy perevodchik. Tashkent.
- Lapin, S.A. 1907, 1914. *Kratkaya grammatika uzbekskogo yazyka*. *Karmannyi russko-uzbekskiy slovar*. Samarkand.
- Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxoja. 1913. *Turkcha qoida*. Toshkent.
- Muhammadrasul Rasuliy. 1911, 1914, 1917. *Rohbari forsi*. Toshkent.
- Suyarov, I. 1965. *Mestoimenie v sovremennom uzbekskom literaturnom yazyke*: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. Samarqand.
- Normamatov, S. 2022. *O'zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari o'zbek tilshunosligi)*. Toshkent: Bookmany Print.
- Rasulov, R. 1955. *O'zbek tilini o'rganish tarixidan*. Andijon davlat pedinstitut i ilmiy asarlari. Andijon.
- Umarov, Z. A. 1967. *Grammatika starouzbekskogo yazyka "Maboni-ul-lugat" Mirzi Mexdixana*: artoref. dis. ... kand. filol. nauk. Tashkent.
- Fitrat, Abdurauf. 2006. *O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba*. Nahv. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
- Fitrat, Abdurauf. 1925. *Sarf*. Toshkent: O'zdavnashr.
- Zunun Sh. 1925. *O'zbekcha til qoidalari*. Toshkent: O'zdavnashr.
- Qodirov, Q. 2006. *O'zbek tili morfologik tizimining o'rganilish tarixidan*: filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.
- Qori, M., Ramazon, Q, Zunnun, Sh. 1926. *O'zbekcha til saboqlig'i*. Samarqand-Toshkent: O'zdavnashr.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.

Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.

Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.

"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.